XALQ DEPUTATLARI JOMBOY TUMANI KENGASHINING
Q A R O R I

JOMBOY t., Mustaqillik maydoni, 1-uy, +998 66 475 2330, 140400

2025-yil 30-dekabr VI-21-130-7-94-K/25 Jomboy tumani

Jomboy tumanining 2026-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 27, 99-moddalari, 2025-yil 25-dekabrdagi “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-1105-sonli Qonuni va xalq deputatlari Samarqand viloyati Kengashining 2025-yil 30-dekabrdagi “Samarqand viloyatining 2026-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VII-24-191-7-0-K/25-sonli qaroriga muvofiq, xalq deputatlari Jomboy tumani Kengashining yigirma birinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 27, 99-moddalari, 2025-yil 25-dekabrdagi “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-1105-sonli Qonuni va xalq deputatlari Samarqand viloyati Kengashining 2025-yil 30-dekabrdagi “Samarqand viloyatining 2026-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VII-24-191-7-0-K/25-sonli qarori ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Qarorga muvofiq, Jomboy tumani budjetining 2026-yilgi daromadlari 119 364,3 mln.so‘m va xarajatlari esa 119 364,3 mln.so‘mga ma’lumot uchun qabul qilinganligi hamda Jomboy tumani budjetining shaxsiy g‘azna hisobvarag‘ida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 907,0 mln.so‘m etib belgilanganligi inobatga olinsin.

3. Tuman budjeti daromadlarining 2026-yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari 1-ilovaga muvofiq hamda tuman budjetidan 2026-yilda hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman budjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 2026-yil uchun 1 594,2 mln.so‘m miqdorida belgilansin.

Bunda, zaxira jamg‘armasi mablag‘larini amaldagi budjet qonunchiligiga muvofiq, budjet tizimi budjetlari shakllantirilayotganda oldindan nazarda tutib bo‘lmaydigan xarajatlarni, shuningdek ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilishi ta’minlansin.

5. Quyidagilar:

Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutlaq miqdorda 1 gektar yer uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar 3-ilovaga;

Jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 kv.m uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

6. Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari (Sh.Xasanov), tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (D.Samatov), tuman soliq inspeksiyasi (B.Baratov) bilan birgalikda 2026-yil mahalliy budjeti uchun belgilangan ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

7. Hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilar har chorak yakuni bilan budjet mablag‘larining samarali va maqsadli sarflanganligi, xarajatlarning amaliy natijalari yuzasidan xalq deputatlari tuman Kengashiga hisobot berib borsinlar:

Bunda, hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilar:

budjetdan ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarni to‘liq rejalashtirilishi va o‘z vaqtida to‘lanishi;

o‘zlarining va tasarrufidagi tashkilotlarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallari hamda daromadlar va xarajatlar smetalarining to‘g‘ri tuzilishi;

budjetdan ajratilgan mablag‘larning maqsadli sarflanishi va maqsadli indikatorlarning to‘liq bajarilishi;

tasarrufidagi tizim tashkilotlariga budjetdan ajratiladigan mablag‘larning to‘g‘ri taqsimlanishi;

o‘z tasarrufidagi tizimda budjet intizomiga amal qilinishi ustidan nazorat qilinishini;

budjet jarayonining ochiqligini ta’minlash maqsadida rasmiy veb-saytlarda ma’lumotlarni joylashtirib borilishini ta’minlasinlar.

8. Mazkur qaror tegishli tahririyatlar va ommaviy axborot vositalarida yoritilishi tavsiya etilsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

9. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi (A.Toshpulatov) zimmasiga yuklatilsin.

10. Ushbu qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

Xalq deputatlari Jomboy tuman Kengash raisi



NAZAROV XURSHID ARIPOVICH

Xalq deputatlari Jomboy tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VI-21-130-7-94-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Tuman budjeti daromadlarining 2026-yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

ming.so‘m

№	Daromad turlari	Jomboy tumani
	JAMI	**119 364 280,0**
1.	Qo‘shilgan qiymat solig‘i	2 443 140,0
2.	Foyda solig‘i	3 771 200,0
3.	Aylanmadan olinadigan soliq	8 783 231,0
4.	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	24 323 220,0
5.	Jismoniy shaxslar mol mulkini ijaraga berishdan	889 000,0
6.	Aksiz solig‘i jami	2 475 500,0
	benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i	*2 475 500*,0
7.	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	2 381 750,0
8.	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	13 809 000,0
9.	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	8 140 531,0
10.	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	41 014 368,0

11.	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	1 172 000,0
12.	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	10 305 000,0
	shundan: Qishloq bo‘jaligi korxonalari bo‘yicha suv solig‘i	7 085 000,0
	Qishloq xo‘jaligi korxonalari suv solig‘ining 40 foizini qaytarish (PQ-5)	-2 834 000,0
13.	Davlat boji	1 222 500,0
14.	Yig‘imlar	499 840,0
15.	Jarimalar	868 000,0
16.	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	100 000,0

Xalq deputatlari Jomboy tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VI-21-130-7-94-K/25 -son qaroriga
2-ilova

Tuman budjetidan 2026-yilda hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning cheklangan miqdorlari

ming.so‘m

№	Hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilar nomi	Cheklangan miqdor
Xarajatlar miqdori, jami		**119 364 280**
1.	Maktabgacha va Maktab ta’limi bo‘limi	39 793 135,0
	shundan:	
	“Mening maktabim”	3 460 800,0
2.	Madaniyat bo‘limi	8 526 998,0
3.	Yoshlar ishlari agentligining hududiy bo‘limi	3 698 698,0
4.	Sport maktabi	5 312 532,0
5.	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlike ko‘maklashish bo‘limi	1 611 879,0
6.	Qishloq xo‘jaligi bo‘limi	4 619 993,0
7.	Suv yetkazib berish xizmati DM	1 962 000,0
8.	Iqtisodiyot va moliya bo‘limini saqlash xarajatlari	2 364 182,0
9.	Ijtimoiy ximoya milliy agentligining hududiy bo‘limi Ijtimoiy ko‘nikma markazi xarajatlari	224 073,0
10.	Hokimiyat	34 552 197,0
	shundan:	

	Iqtisodiyot va moliya bo‘limi	*0,0*
	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi	*0,0*
	Madaniyat bo‘limi	*0,0*
	Yoshlar ishlari agentligining hududiy bo‘limi	*0,0*
	Investitsiyalar, sanoat va savdo bo‘limi	*0,0*
	Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bo‘limi	*0,0*
	Qishloq xo‘jaligi bo‘limi	*0,0*
	Oila va xotin-qizlar bo‘limi	*0,0*
	Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi	*17 654 106,0*
	“Mahalla budjeti” jamg‘armasi mablag‘lari	*3 335 000,0*
	Zahira jamg‘armasi	*1 594 242,0*
11.	Hokimiyat (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi)	873 863,0
	shundan:	
	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonasini saqlash xarajatlari	*111 048,0*
	Axborot-kutubxona markazi	*762 815,0*
12.	Obodonlashtirish boshqarmasi	15 824 730,0
13.	Boshqa tashkilotlar	0,0

Xalq deputatlari Jomboy tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VI-21-130-7-94-K/25 -son qaroriga
3-ilova

Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutlaq miqdorda 1 gektar yer uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar

T/R	Mahallalar nomi	Koeffitsient	Yer solig‘i stavkasi 2026-yil uchun (so‘mda)
1.	Guliston mahallasi	1,77	77 933 100
2.	Alisher Navoiy mahallasi	1,77	77 933 100
3.	Axmadjon Qurbonov mahallasi	1,77	77 933 100
4.	Beshbola mahallasi	1,48	65 164 400
5.	Nayman mahallasi	1,18	51 955 400
6.	G‘azira mahallasi	1,34	59 000 200
7.	Dehqonobod mahallasi	1,63	71 768 900
8.	Ko‘kgumbaz mahallasi	1,18	51 955 400
9.	Zarafshon mahallasi	1,77	77 933 100
10.	Qangli mahallasi	1,34	59 000 200
11.	Kattaqishloq mahallasi	1,63	71 768 900
12.	Qoramo‘yin mahallasi	1,34	59 000 200
13.	Quduqli mahallasi	1,04	45 791 200
14.	Naymantepa mahallasi	1,34	59 000 200

15.	Qo‘lbosti mahallasi	1,04	45 791 200
16.	Qo‘ng‘irot mahallasi	1,04	45 791 200
17.	Juriyat mahallasi	1,48	65 164 400
18.	Nogaxon mahallasi	1,04	45 791 200
19.	Sarchashma mahallasi	1,63	71 768 900
20.	Olmazor mahallasi	1,18	51 955 400
21.	Nazar mahallasi	1,77	77 933 100
22.	Eski Jomboy mahallasi (Zarafshon massivi)	1,48	65 164 400
23.	Shodlik mahallasi	1,77	77 933 100
24.	Shirinkent mahallasi	1,63	71 768 900
25.	Sherqo‘rg‘on mahallasi	1,04	45 791 200
26.	Xolvoyi mahallasi	1,77	77 933 100
27.	Xitoypayon mahallasi	1,04	45 791 200
28.	No‘sh mahallasi	1,34	59 000 200
29.	Tut mahallasi	1,48	65 164 400
30.	Toshkent mahallasi	1,77	77 933 100
31.	Taldirazzoq mahallasi	1,04	45 791 200
32.	So‘xmon mahallasi	1,63	71 768 900
33.	Saroy mahallasi	1,34	59 000 200
34.	Sariqipchoq mahallasi	1,04	45 791 200
35.	Samarqand mahallasi	1,77	77 933 100
36.	Polvonariq mahallasi	1,04	45 791 200

37.	To‘qqizboy mahallasi	1,04	45 791 200
38.	Qo‘rg‘onsalamon mahallasi	1,34	59 000 200

Xalq deputatlari Jomboy tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VI-21-130-7-94-K/25 -son qaroriga
4-ilova

Jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 kv.m uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar

T/R	Mahallalar nomi	Koeffitsient	Yer solig‘i stavkasi 2026-yil uchun (so‘mda)
1.	Guliston mahallasi	2,11	771,77
2.	Alisher Navoiy mahallasi	2,11	771,77
3.	Axmadjon Qurbonov mahallasi	2,11	771,77
4.	Beshbola mahallasi	1,54	563,29
5.	Nayman mahallasi	1,34	490,13
6.	G‘azira mahallasi	1,34	490,13
7.	Dehqonobod mahallasi	1,91	698,62
8.	Ko‘kgumbaz mahallasi	1,34	490,13
9.	Zarafshon mahallasi	2,11	771,77
10.	Qangli mahallasi	1,73	632,78
11.	Kattaqishloq mahallasi	2,11	771,77
12.	Qoramo‘yin mahallasi	1,34	490,13
13.	Quduqli mahallasi	1,34	490,13

14.	Naymantepa mahallasi	1,34	490,13
15.	Qo‘lbosti mahallasi	1,34	490,13
16.	Qo‘ng‘irot mahallasi	1,34	490,13
17.	Juriyat mahallasi	1,54	563,29
18.	Nogaxon mahallasi	1,34	490,13
19.	Sarchashma mahallasi	1,91	698,62
20.	Olmazor mahallasi	1,34	490,13
21.	Nazar mahallasi	2,11	771,77
22.	Eski Jomboy mahallasi (Zarafshon massivi)	1,73	632,78
23.	Shodlik mahallasi	2,11	771,77
24.	Shirinkent mahallasi	1,73	632,78
25.	Sherqo‘rg‘on mahallasi	1,34	490,13
26.	Xolvoyi mahallasi	2,11	771,77
27.	Xitoypayon mahallasi	1,3	475,5
28.	No‘sh mahallasi	1,54	563,29
29.	Tut mahallasi	1,73	632,78
30.	Toshkent mahallasi	2,11	771,77
31.	Taldirazzoq mahallasi	1,34	490,13
32.	So‘xmon mahallasi	1,91	698,62
33.	Saroy mahallasi	1,54	563,29
34.	Sariqipchoq mahallasi	1,34	490,13
35.	Samarqand mahallasi	2,11	771,77
36.	Polvonariq mahallasi	1,34	490,13

37.	To‘qqizboy mahallasi	1,34	490,13
38.	Qo‘rg‘onsalamon mahallasi	1,34	490,13